

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH USULLARI

**X.Z.Hasanova**

*Xalqaro Nordik Universiteti*

*2-bosqich magistratura talabasi*

*[x.hasanova@nordicuniversity.org](mailto:x.hasanova@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya.** *“Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o‘stirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish usullari” mavzusidagi maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkiloti tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari nutqini o‘stirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish metodlari va uni tashkil etish shakllari haqida so‘z yuritilgan. Bola nutqiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan badiiy adabiyot vositalari yordamida bolalarni nutqida yuzaga keladigan xato va kamchiliklarni bartaraf etishga samarali xizmat qilishi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *ertaklar, maqol, topishmoq, bolalar badiiy adabiyoti, folklor san’ati.*

**Abstract.** *The article on the topic “Methods of using fiction in developing the speech of preschool children” discusses the methods of using fiction in developing the speech of preschool children in the preparatory group of preschool educational organizations in Uzbekistan and the forms of its organization. The ideas and observations are presented on the effective use of fiction tools used in the process of implementing a child's speech activity to eliminate errors and shortcomings in children's speech.*

**Keywords:** *fairy tales, proverbs, riddles, children's fiction, folklore art.*

### KIRISH

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasiga qaratilayotgan e’tibor natijasida sohada juda ko‘p ishlar olib borilmoqda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-2026-yillarda “Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 12.02.2025-y 83-sonli<sup>29</sup> qarorida keltirilgan vazifalarni shular jumlasiga kiritish mumkin. Maktabgacha ta’lim tizimi yangi bosqichga olib chiqish va yanada rivojlantirish nafaqat bosh qomusimiz konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan, balki ushbu ta’lim tizimi uchun alohida bo‘lgan qonun va qarorlar ham soha rivojiga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta’lim va tarbiya hozirda bolaga

<sup>29</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son qarori

nafaqat tarbiya, unga qo'shimcha tarzda ta'lim ham bermoqda. Shu boisdan maktabgacha ta'lim tizimini yuksaltirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Har bir ota-ona farzandini sog'lom va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini xohlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik jamoasi va ota-ona o'rtasidagi munosabatlar esa bunda muhim rol o'ynaydi. Chunki kun davomida tarbiyalanuvchilarning ko'p vaqti maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tishini inobatga oladigan bo'lsak, bu pedagog hodimlarga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Tarbiyalanuvchilar uch yoshga qadam qo'yib maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilingunga qadar oila muhitida tarbiya oladi va unda ko'plab ko'nikma va malakalar shakllanadi. Shu sababli bolalarni nutqni o'sishi, yangi bilim, ko'nikmalarni egallashi va olgan bilimlarini mustahkamlashi ko'p jihatdan oiladagi muhitga bog'liq bo'ladi. Har bir ota-ona va pedagog-tarbiyachilar o'z vaqtida bolalarni rivojlanishini nazorat qilib borishi muhim ahamiyatga ega. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-sonli qarorida belgilangan asosiy bandlarga muvofiq bola qiziqishlariga individual shaklda yondashish asosida ularning ehtiyojlarini inobatga olgan holda "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

#### **XIV bob. Oila<sup>30</sup>**

##### **63-modda.**

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

##### **64-modda.**

Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

##### **65-modda.**

Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

#### **METODOLOGIYA**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o'stirishda turli xildagi innovatsion texnologiyalar, interaktiv vositalardan ham foydalanish o'rinli ammo shular jumlasida badiiy adabiyotning ham o'z o'rnini mavjud deb hisoblanadi, chunki

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuniga asosan.

bolani go'dakligidan hatto chaqaloqlik davrida ham badiiy adabiyot bilan birga uning nutqi ham rivojlanib boradi. Ya'ni chaqaloqlik davridagi "ona allasi" uning ilk bor badiiy adabiyot bilan tanishishiga sababchi bo'ladi. Yana turli xildagi "ertaklar", "hikoyalar", "masallar", "she'rlar", "topishmoq va tez aytish, maqollar" ham shular sirasiga kiradi. Bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyatning o'rnini hech bir vosita orqali to'ldira olmaymiz chunki badiiy adabiyot bolani nutqini rivojlantiribgina qolmasdan uni his-tuyg'ularni jilovlashni, insonparvarlik, mehnatsevarlik, oq ko'ngil bo'lishga, yaxshi va yomonni farqlashga, ona vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Ushbu his-tuyg'ularni esa biz turli xil she'r, hikoya va ertaklar orqali bolaga singdira olamiz. Misol tariqasida "egri va to'g'ri" ertagini olaylik bunda bolalarning chiqaradigan xulosasi "adolat har doim g'alaba qozonishini, yaxshilik hech qachin yerda qolmasligini, mehnatsevarlik va bilim hech qachon insonga pand bermasligini" ko'rsatishimiz, tushuntirishimiz mumkin bo'ladi. Hayvonlar obrazida jonlantirilgan "Masallar" esa bolada o'zida kamchiliklarni tuzatishga ko'makchi bo'ladi deyish mumkin. Bundan tashqari "Bolalar adabiyoti" ning yana bir muhim jihati bolalarda lug'at boyligini oshishiga ham sabab bo'ladi. Quyida bolalar uchun keltirigan bir hikmatli jumlagi e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak *"Til insonning jisman eng kichik, ammo mas'uliyatli va vazifasi jihatidan katta e'tiborga loyiq a'zosidir. Uni faqat xayrli, yaxshi so'zlar uchun ishlatish va yomon, dilozor so'zlarni aytishdan saqlash lozim. Shu sababli faqat yaxshi narsalarni gapir yoki jim turishni o'zingga odat qil"*<sup>31</sup>. har bir ishda va munosabatda til odobiga rioya qilish kerakligi haqida so'z yuritilgan bo'lib agar unga loqaydlik qilinadigan bo'lsa uning ortidan yomon hodisalar sodir bo'lishi haqida ogohlantirilgan. Tayyorlov guruhi bolalari bilan birgalikda badiiy adabiyot bilan ishlashni maktabgacha ta'lim va tarbiya tashkilotlarida kunni ikkinchi yarmida fundamental va kompleks shaklida "Ilk qadam davlat dasturi" asosida tashkil etganligimiz uchun yanada yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdamiz desak mubolag'a bo'lmaydi aslida. aynan "Bolalar adabiyoti" ham nutq o'sitishda katta o'rin egallaydiro Demak, bola nutqini rivojlantirayotganimizda nutqimizdagi so'zlardan faqat to'g'ri maqsadlarda foydalanishimiz va so'zlashimiz kerakligini ham ta'kidlashimiz kerak bo'ladi.

### TAHLILLAR

Yuqorida keltirilgan qaror va farmonlarni joriy qilinishdan maqsad, kelajak avlodni yetuk shaxs bo'lib yetishishi uchun uning sog'lom bo'lishiga zamin yaratishdir. Shu bilan birga Olimlar, tadqiqotchi mutaxassislarining tobora ko'proq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri tarbiyalash va ta'lim tizimini shaxsga majmual, insoniy tasir o'tkazishi, har bir o'quvchining muntazam va imkon qadar

<sup>31</sup> . [Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. N. Ismatova va boshqalar. T. 2021, b-19.]

to'liq rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar. Qadimdan va hozirgi kunda ham maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishning pedagogik hamda metodologik jihatlarini takomillashtirish borasida Sharq mutafakkirlari va G'arb olimlarining bir qator sohaga doir adabiyotlari mavjud, olimlardan Al-Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, R.A.Suleymanova. Xorijlik olimlardan L.S.Vigotskiy, Y.A.Komenskiy bolalarni sog'lom rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'yin shaklida ta'lim faoliyatini olib borish bolaning salomatligiga ijobiy ta'siri qilishi haqidagi ma'lumotlar yoritib o'tilgan.

### **NATIJALAR**

Tayyorlov guruhini nutqini o'stirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish metodikasidan oladigan natijamiz bisyor:

1. Bola yangi so'zlarni o'rganishi orqali-nutqida va tasavvur olami ham kengayadi, o'z fikrini kengroq va yorqinroq bayon etishni boshlaydi, grammatik jihatdan ham so'zlarni joy-joyida qo'llay oladi. Nutqida so'zlardan foydalanganda ravon, har qanday g'alizliklarsiz qo'llay boshlaydi

2. His-tuyg'u, emotsiyalarini boshqarishni o'rganadi, o'zining "men"ini yaxshi anglaydi, berilgan topshiriq va mashg'ulotlarni o'z vaqtida a'lo darajada amalga oshiradi. Aqliy faoliyatga doir mazifalarda ham ba'zi o'rinlarda ham uddaburon bo'ladi.

3. Yaxshilik va yomonlikni ajrata boshlay, atrofidagi insonlarni unga bo'lgan munosabatini ham o'z o'rnida tafakkur qila oladi, shu bilan birga teran tasavvur qilish qobiliyati ham yaxshigina shakllanadi va shu bilan bir qatorda atrof-muhitga bo'lgan qiziqishi ortib ko'proq o'zini qiziqtirgan savollarga javob izlay boshlaydi.

4. Xotirasi yaxshilanadi va rivojlanadi- ko'p badiiy kitoblarni o'qib berish yoki ko'proq mutolla qilishi orqali bolada doimiy xotira shakllanadi, diqqati ortadi.

5. Bolalarning ijtimoiy hayot hodisalari, kishilar mehnati bilan tanishish doirasi kengayadi.

### **XULOSA**

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish sohasidagi psixologik, pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: - nutqni rivojlantirish-bolaning individual psixik rivojlanishida markaziy o'rin tutuvchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishining murakkab, ko'p omilli jarayonidir; Nutqni rivojlantirish-bu malakali pedagogik rahbarlikni nazarda tutuvchi ijodiy jarayon, lekin u stixiyali jarayon emas, bola nutqini rivojlantirish jarayonini boshqaruvchi shaxs bu pedagog, u jarayonning turli yosh bosqichlaridagi qonuniyatlarini, mexanizmlarini, o'ziga xosliklarini bilishi, nutqiy rivojlantirishning o'ziga xosliklarini ko'ra olishi va bolaning individualligini

hisobga olgan holda, uning nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi lozim hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Oila" to'g'risidagi bobi.
2. Shavkat Mirziyoyev Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish. Toshkent
3. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" 2019-y 8-may
4. "Ilk qadam" davlat dasturi 2020-y
5. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi. (o'quv qo'llanma)
6. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017
7. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. T., "Tarbiyachi ", 2017
8. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018,
9. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)